

Date: 3rd April-2026

KREATIVLIK O‘QITUVCHI INNOVATSION FAOLIYATIDA FANLARARO
ALOQALARNING USLUBIY VA DIDAKTIK ASOSLARI

Komilova Xurshida Toxirovna

Andijon davlat pedagogika instituti “Boshlang’ich ta’lim”
kafedrası, P.f.b.f.d professor

Ashirmamatova Madina Murodiljon qizi

ADPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “kreativlik” tushunchasining mazmuni, pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, uni rivojlantirish omillari va vositalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan, o‘qituvchining kreativligi va uning innovatsion faoliyatdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, fanlararo aloqalarni tashkil etishning uslubiy va didaktik asoslari yoritilgan. Ta’lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi asoslab berilgan. Kreativ yondashuv orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi ta’minlanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, innovatsion faoliyat, fanlararo aloqa, didaktika, metodika, integratsiya, kompetensiya, ta’lim texnologiyalari, pedagogik yondashuv, ijodkorlik.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical explanation of the concept of "creativity", its significance in pedagogical activity, factors and means of its development, analyzes the creativity of the teacher and its significance in innovative activity. Also, the methodological and didactic foundations of organizing interdisciplinary connections are highlighted. The effectiveness of an integrated approach in the educational process is substantiated. It is shown that a creative approach ensures independent thinking of students and deep assimilation of knowledge.

Keywords: creativity, innovative activity, interdisciplinary communication, didactics, methodology, integration, competence, educational technologies, pedagogical approach, creativity.

Аннотация: В данной статье дается научно-теоретическое объяснение понятия «креативность», ее значения в педагогической деятельности, факторов и средств ее развития, анализируется креативность учителя и ее значение в инновационной деятельности. Также освещаются методологические и дидактические основы организации междисциплинарных связей. Обосновывается эффективность интегрированного подхода в образовательном процессе. Показано, что творческий подход обеспечивает самостоятельное мышление учащихся и глубокое усвоение знаний.

Ключевые слова: креативность, инновационная деятельность, междисциплинарная коммуникация, дидактика, методология, интеграция, компетентность, образовательные технологии, педагогический подход, креативность.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchidan faqat bilim berishni emas, balki o‘quvchini fikrlashga o‘rgatishni ham talab qilmoqda. Endilikda



Date: 3rd April-2026



dars jarayonida tayyor ma'lumotni yetkazishdan ko'ra, uni izlab topish va tahlil qilish muhim. Shu jihatdan o'qituvchining kreativ yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Kreativ o'qituvchi darsni bir xil qolipda emas, balki vaziyatga mos holda tashkil etadi. Bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bunday faoliyat ko'pincha innovatsion yondashuvlar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat o'qituvchining yangi metod va vositalarni amaliyotga joriy etishini anglatadi. Fanlararo aloqalar esa o'quv materialini kengroq va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish o'quvchining dunyoqarashini shakllantiradi. Natijada ta'lim jarayoni yanada samarali va mazmunli kechadi.

XXI asrda pedagogika sohasi chuqur transformatsion bosqichni boshdan kechirmoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, sun'iy intellektvaavtomatlashtirishning ta'limga integratsiyasi pedagogik faoliyatga yangicha yondashuvlarnitalabqilmoqda. Endilikda o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki innovatsionfikirlovchi, muammo yechuvchi, kommunikator, murabbiy va motivator sifatida shakllanishi zarur. Axborotgabo'lgan tezkor va keng ko'lamli kirish imkoniyati natijasida o'quvchilar ko'proqmustaqilzilanishga moyil bo'lib bormoqda, bu esa pedagogdan zamonaviy, ijodiy va moslashuvchanyondashuvni talab qiladi.

Kreativlik – bu shunchaki yangi g'oyalarni ishlab chiqish emas, balki mavjudmuammolargaalternativ yechimlar topish, noan'anaviy fikrlash orqali o'quv jarayonini boyitishvata'limiysamaradorlikni oshirish vositasidir. Bu jarayon murakkab tafakkur, fantaziya, refleksiya va tashabbuskorlikni o'z ichiga oladi. Kreativlikning asosida muammoli vaziyatlarda tezkor, mantiqiyva original qarorlar qabul qila olish qobiliyati yotadi. Ayniqsa, bu sifat pedagogkasbidajudadolzarb, chunki pedagog har kuni turli o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi, ularningindividualehtiyojlariga qarab metodikasini, muloqot uslubini va taqdimot shaklini moslashtirishi kerak

Kreativlik pedagogikada shunchaki yangilik kiritish emas, balki mavjud bilimlarni yangi shaklda taqdim etish qobiliyatidir. Psixologik tadqiqotlarda kreativlik shaxsning moslashuvchan fikrlashi, muammoga turli nuqtai nazardan yondasha olishi bilan izohlanadi.

“Kreativlik so'zini ilk bor 1922- yilda AQSH olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi stereotip, oddiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan¹”. Bundan tashqari, amerikalik psixolog J. P. Guilford tomonidan 1950-yilda Amerikadagi Psixologlar assotsiatsiyasi yig'ilishidagi mashhur nutqida ilmiy atama sifatida ta'riflab berilgan. “U kreativlikni inson aql-zakovatining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etib, uni divergent tafakkur, ya'ni turli imkoniyatlarni bir vaqtning o'zida ko'ra olish, muammolargabirnechta noan'anaviy yondashuvni ishlab chiqish qobiliyati deb izohlagan. Guilford fikricha, kreativlik – bu inson tafakkurining strukturaviy

¹ Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI, 2(6), 124-126

Date: 3rd April-2026

funksiyasi bo'lib, u originallik(novatorlik),moslashuvchanlik, oqimlilik va aniqlik kabi asosiy komponentlarga ega²”.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. ”Innovatsiya tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo'lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. XX asrning 30 yillarda AQShda “firma innovatsion siyosati”, “innovatsion jarayon” atamaları paydo bo'ldi.

Dastavval, Sh.R.Toshpulatov “Innovatsion faoliyat -yangi bilim va texnologiyalarni yaratish, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish deb ta'riflaydi³”. U innovatsion faoliyatning iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Kreativlik ko'pincha san'at, ilm-fan, texnologiya va kundalik hayotda qo'llaniladi. Bu jarayon odatda intuitiv va mantiqiy fikrlashni birlashtiradi, shuningdek, mavjud bilim va tajribalarni yangi kontekstlarda qo'llashni talab qiladi. Shu jumladan, mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Innovatsion faoliyatni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqilib bo'lajak o'qituvchilarni birgalikdagi ijodiy faoliyatga o'rgatish, kreativ yondashuv asosida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, innovatsiya va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash, innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kreativ texnologiyalar o'quv jarayonini fikrlash, kelajakni qurish, qiyosiy tahlil qilish, sintez qilish va o'z xulosasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. “Kreativ texnologiyalar nafaqat bilim qobiliyatini rivojlantirish, balki korrektsiyalash maqsadida doimiy monitoring olib borish imkonini beradi⁴”.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati “Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

² Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454

³ Sh. R. Toshpulatov. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.2015.

⁴ Bashmakov A. I. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. -M: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2014



Date: 3rd April-2026

Kreativlik o'qituvchining darsni qanday tashkil etishida yaqqol ko'rinadi. Oddiy qilib aytganda, kreativ o'qituvchi darsni bir xil tarzda o'tmaydi, balki yangi usullarni sinab ko'radi, o'quvchilarni o'ylashga undaydi. Masalan, u bir mavzuni tushuntirishda boshqa fanlarga ham murojaat qiladi. Bu esa darsni qiziqarli va tushunarli qiladi.

Fanlararo aloqalar aynan shu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Chunki hayotning o'zida ham bilimlar alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, geografiya darsida ekologiya masalalarini tushuntirish yoki matematika orqali iqtisodiy hisob-kitoblarni ko'rsatish o'quvchiga bilimni yaxlit holda qabul qilishga yordam beradi.

Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun o'qituvchi turli metodlardan foydalanadi. Jumladan, muammoli savollar berish, kichik loyihalar tashkil etish, guruhli ishlash usullari samarali hisoblanadi. Bu usullar o'quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi.

Didaktik jihatdan qaraganda, bunday darslar ilmiylik, izchillik va tushunarlilik tamoyillariga asoslanadi. Ya'ni, o'quvchiga berilayotgan bilim aniq, mantiqiy va sodda tarzda yetkazilishi kerak. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham dars samaradorligini oshiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida kreativlikning shakllanishiga yordam beruvchi Aqliy hujum, SWOT tahlil, Insert va FSMU metodlaridan foydalanilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

«FSMU» metodi. Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqilijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi. Metodning qo'llanilishi jarayonida dastlab, muammoli savol beriladi, fikr va g'oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g'oyalar guruhlanadi, Aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi. Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

FSMU metodini qo'llash natijasida Kreativlikni shakllantirish borasida quyidagi natijalarga erishish mumkin.

Dastlab, kreativlikni rivojlantirishda fikrlashni kengaytirishdan foydalaniladi: fikrlarni kengaytirishda g'oyalarni tahlil qilish va ularni to'rt turdagi ko'rinishda ajratish orqali har bir jihatni alohida o'ylashga majbur qiladi, bu esa yangi g'oyalar va yondoshuvlarning rivojlanishiga olib keladi.



Date: 3rd April-2026

Shuningdek, Turli usullarni birlashtirishham kreativlikni rivojlantirishning usullaridan bo'lib hisoblanadi.FSMU usuli yordamida fikrlar va yechimlarni turli shakl, mavzu va usullar bo'yicha tahlil qilish orqali, murakkab masalalarni yangi va samarali usullarda hal qilish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, Kreativ va tizimli yondashuvosida bu metod, g'oyalarni tizimli ravishda tahlil qilish rag'batlantiriladi, bu esa yaratish jarayonida ko'proq kreativ va samarali natijalar olishga yordam beradi.

Ushbu metodlarning qo'llanilishi natijasida g'oyalar va yechimlarning ko'pligisababli ham samaradorlik oshib boradi.Aqliy hujum orqali bir nechta kreativ g'oyalar ishlab chiqiladi, SWOT tahlil orqali imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanadi, FSMU metodi esa bu g'oyalarni tizimli tarzda qayta ishlash imkonini beradi.Har bir metod o'zining yondashuvi orqali yangi, original va samarali yechimlarni yaratishda yordam beradi. Aqliy hujum erkin fikrlashni ta'minlaydi, SWOT tahlil imkoniyatlarni aniqlaydi, FSMU esa har bir g'oyani turli jihatlardan ko'rib chiqadi.

Avvalo, bo'lg'usi o'qituvchilarning ijodiy fazilatlarini, shu jumladan pedagogik OTMlarda kreativlikni rivojlanishni rag'batlantiradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni tavsiflaylik. Masalan, "E.P.Torrens shaxsning ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlarni ajratgan: ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi⁵".

Integrativ yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish muammolari yuzasidan R. Safarova Abdullayeva kabi o'zbek olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu va boshqa tadqiqot ishlarida fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlariaro, A. Musurmonov, P. Musayev, A. Ch. Choriyev, A. A. Salomov, B. aloqadorlik asosida tanlangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiyamaliy jihatdan hal etilgan. Jumladan, "V. N. Fedorova o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib, o'quv fanlariaro aloqadorlik tabiiy fanlar bilan atrof-muhit hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va izchillikda ifodalashning didaktik sharti sifatida namoyon bo'lishi asoslarini tarkib toptirishning pedagogik, psixologik, metodik jihatlari tadqiq qilingan⁶".

Kreativ pedagog shaxsining asosiy kompetensiyasi sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin:

1. Didaktik kreativlik
2. Kommunikativ kreativlik
3. Reflektiv kreativlik

⁵ Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.

⁶ Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBİYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 511- 516.



Date: 3rd April-2026

Didaktik kreativlik
– o‘quv materialini
turlicha
formatlarda
(podkast,
infografika, drammat
izatsiya) taqdim
etish, murakkab

Kommunikativ
kreativlik –
turli yoshdagi
va turli
darajadagi
o‘quvchilar
bilan samarali
muloqot,

Reflektiv kreativlik – o‘z
darslarini tahlil qilib,
xatolar ustida ishlash,
yangi metodlarni izlab
topish va ularni faol
tatbiq etish qobiliyati. Bu
kompetensiyalar orqali
pedagog ijodiy shaxs

Pedagogik kreativlik borasida ilmiy doiralarda turli yondashuvlar mavjud. Biologikdeterministik nazariyalar kreativlikni shaxsning tug‘ma xususiyati sifatida qarasa, sotsial-psixologik yondashuvlar uni ijtimoiy muhitda shakllanuvchi va rivojlanadigan sifat deb baholaydi. Amaliy pedagogikada esa kreativlik ko‘p hollarda orttiriladigan kompetensiya sifatida talqin qilinadi, ya‘ni uni pedagog o‘z faoliyati davomida rivojlantirib boradi.

Ko‘plab zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan E.P. Torrens, R.Sternberg, M.A. Runco, B.Xodjayev, kreativlikni faoliyat, muhit va shaxslararo munosabatlar kontekstidabaholash zarurligini ta‘kidlaydi.

“Torrensning to‘rt komponentli modeli (fikrlash erkinligi, moslashuvchanlik, originallik, batafsillik) kreativlikni nafaqat mahsulot (fikir), balki jarayon (o‘rganish) sifatida ko‘rib chiqadi⁷”.

“Taniqli kreativlik tadqiqotchisi G. Ouch, kreativ fikrlashga to‘sqinlik qiluvchi omillarni "aqliy qulflar", ya‘ni hayot va kasbiy vaziyatlarni hal qilishga ijodiy yondoshishga to‘sqinlik qiladigan ongning kuchli munosabati deb ataydi. Uning fikriga ko‘ra, bunga quyidagilar kiradi: o‘z-o‘ziga ishonchsizlik; boshqalardan ko‘ra yomonroq ko‘rinishdan qo‘rqish; barcha hayotiy va ta‘limiy vaziyatlarni mantiq nuqtai nazaridan baholash odati; har doim amaliy bo‘lishga intilish; umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilish odati; faqat bitta to‘g‘ri javobni belgilash; noaniqlikdan qochishga moyillik; umuman va boshqalarga xato qilish mumkin emas degan ong osti fikrlash⁸”.

Demak, o‘quv fanlariaro aloqadorlik hodisasi, ya‘ni integratsion yondashuv murakkab va serqirra didaktik jarayondir. Fanlararo aloqadorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o‘zaro bog‘langan holda rivojlanishi hamma zamonda ta‘limning asosini tashkil etadi va kreativ kompetensiyalarni takomillashtiradi, shu bilan birga, ta‘limning taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik o‘qituvchining innovatsion faoliyatida muhim o‘rin egallaydi va ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Fanlararo aloqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarda bilimlarni

⁷ Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Personnel Press.

⁸ Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta‘lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.



Date: 3rd April-2026

yaxlit holda anglash, ularni amaliyotda qo'llash hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlardan foydalanish o'qituvchining kreativ salohiyatini namoyon etishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim jarayoni yanada qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etiladi. Shu bois, o'qituvchi o'z faoliyatida kreativ yondashuvni rivojlantirishi va fanlararo integratsiyani izchil qo'llashi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI, 2(6), 124-126
2. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454
3. Sh. R. Toshpulatov. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.2015.
4. Bashmakov A. I. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. -M: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2014
5. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
6. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 511- 516
7. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Personnel Press.
8. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.
9. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI file:///C:/users/i7/Downloads/429-433
10. O'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish. <https://share.google/OCR8Wgq6BwfudPD7O>

